



GLOBAL TA'LIM SOHASIDAGI YANGICHA YONDASHUVLAR

Aliyeva Sarvinoz Abbosjon qizi

FarDu: amaliy ingliz tili kafedrası, PHD

Musayeva Muhsina Mansur qizi

FarDu Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Global ta'lim sohasidagi yangicha yondashuvlar zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etish, raqamli texnologiyalar va innovatsion strategiyalar orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. Maqolada innovatsion ta'lim metodlari, interaktiv o'quv muhitlari, individual yondashuv va raqamli resurslar yordamida talabalarni bilimga jalb qilish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, global tajriba misollari va istiqbolli yondashuvlar ham ko'rib chiqiladi.*

Аннотация. *Новые подходы в глобальном образовании направлены на повышение качества обучения через внедрение современных педагогических методов, цифровых технологий и инновационных стратегий. В статье анализируются инновационные методы обучения, интерактивная образовательная среда и использование цифровых ресурсов для вовлечения студентов. Также рассматриваются примеры глобального опыта и перспективные подходы.*

Abstract. *Innovative approaches in global education aim to improve the quality of learning by implementing modern pedagogical methods, digital technologies, and innovative strategies. The article analyzes innovative teaching methods, interactive learning environments, and the use of digital resources to engage students. Global examples and prospective approaches are also discussed.*

Kalit so'zlar: *global ta'lim, innovatsion metodlar, interaktiv dars, raqamli texnologiyalar, pedagogika, o'quv jarayoni, o'quv muhit, masofaviy ta'lim, individual yondashuv*

Ключевие слова: *глобальное образование, инновационные методы, интерактивные уроки, цифровые технологии, педагогика, учебный процесс, образовательная среда, дистанционное обучение, индивидуальный подход*

Key words: *global education, innovative methods, interactive lessons, digital technologies, pedagogy, learning process, learning environment, distance learning, individual approach.*

Kirish

So'nggi yillarda global ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy talaba faqat ma'lumotni qabul qiluvchi emas, balki bilimlarni amaliyotga tatbiq qiluvchi faol ishtirokchi bo'lishi kerak [1]. Shu sababli, bugunning dolzarb mavzusi, pedagogik jarayonlarni innovatsion yondashuvlar bilan boyitish hisoblanadi. Bu yo'lda global miqyosda ta'lim jarayoniga interaktiv va





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

raqamli metodlar, loyihalar asosidagi ta'lim, ko'p darajali mashg'ulotlar, individual yondashuv kabi metodlar keng tatbiq etilmoqda. Bu yondashuvlar o'quvchi bilimini rivojlantiribgina qolmay, balki talabalarni ijodiy fikrlash va muloqot ko'nikmalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Innovatsion pedagogik metodlar, talabalar uchun qiziqarli va samarali o'quv jarayonini tashkillovchi omillardir. Masalan: Loyihalar asosidagi ta'lim (Project-Based Learning, PBL), talabalarning real muammolarni yechish orqali bilimga ega bo'lishini ta'minlaydi. [3]. Muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan metodlar esa o'quvchilarga o'z bilimlarini mustaqil tahlil qilish ko'nikmasini oshirishda xizmat qiladi. Ko'p darajali o'quv mashg'ulotlari: talaba bilimini individual sur'atda rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, interaktiv metodlar yordamida talabalar orasida muloqot va hamkorlik ko'nikmalari rivojlantiriladi. Misol uchun, bir nechta mamlakatlar universitetlari virtual laboratoriyalar orqali talabalarni birlashtirib, turli ilmiy loyihalarda hamkorlik qilish imkonini yaratmoqda [1]. Global ta'lim tizimida asosiy rol o'ynovchi omil bu raqamli texnologiyalardir. Masofaviy o'qitish platformalari, virtual laboratoriyalar, mobil ilovalar va sun'iy intellekt yordamida ta'lim jarayoni optimallashtiriladi [2]. Coursera, edX va Khan Academy kabi masofaviy ta'lim platformalari talabalarni individual sur'atda o'qitadi. Talabalarga real laboratoriya sharoitida tajriba o'tkazish imkonini beruvchi laboratoriyalar, virtual laboratoriyalar hisoblanadi. O'quvchilarning bilim darajasini kuzatib, individual tavsiyalar beruvchi platforma esa AI hisoblanadi. [4]. Bu kabi yondashuvlar, ayniqsa, pandemiya davrida ta'limni davom ettirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Muhokama

Ba'zi mamlakatlar innovatsion metodlarni keng joriy etishda yetakchilik qiladi. Stefaniye Bell tadqiqotlari davomida Finlyandiya ta'lim tizimi interaktiv va loyihaviy metodlarga asoslangan bo'lib, talabalarning ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishi haqida aytib o'tgan. Shuningdek, Janubiy Koreyada raqamli resurslar va sun'iy intellekt yordamida individual yondashuv tatbiq etiladi, degan fikrni Rose Luckin tadqiqotlarida keltirib bergan. [3,4]. Bundan tashqari, global hamkorlik platformalari orqali talabalar turli mamlakatlar bilan muloqot qilish, birgalikda loyihalar amalga oshirish hamda madaniy almashinuvni rivojlantirish imkoniyatiga erishadi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish va talabalarni kelajakdagi ish bozoriga tayyorlash demakdir.

Natijalar

Global ta'lim sohasidagi yangicha yondashuvlar — pedagogika, texnologiya va innovatsiyalar uyg'unlashgan tizimdir. Zamonaviy metodlarni tatbiq etish orqali ta'lim sifatini oshirish, talabalarni bilim olish jarayoniga faol jalb qilish va ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash mumkin. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlar doimiy ravishda yangilanib borishi va global tajribalarga moslashib borishi kerak. Natijalar shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish talabalar faolligini oshiradi hamda ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Loyihalar asosidagi ta'lim orqali talabalar real hayotiy muammolarni tahlil qilish, jamoada ishlash va yechim topish ko'nikmalarini egallaydi. Shuningdek, masofaviy ta'lim platformalari va virtual laboratoriyalar bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, ta'lim jarayonini yanada qulay va samarali qiladi. Bundan tashqari, global tajribalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion pedagogik yondashuvlar qo'llanilganda talabalarning ijodiy fikrlashi, kommunikativ ko'nikmalari va muammolarni hal qilish qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlanadi. Natijada ta'lim tizimi nafaqat nazariy bilim berishga, balki talabalarni zamonaviy jamiyat va mehnat bozoriga tayyorlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, global ta'lim tizimida innovatsion pedagogik metodlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Loyihalar asosidagi ta'lim, interaktiv metodlar, ko'p darajali mashg'ulotlar hamda sun'iy intellektga asoslangan platformalar talabalarning bilim olish jarayonini yanada samarali qiladi. Shuningdek, turli mamlakatlar tajribasi ta'lim tizimini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar muhim ekanini ko'rsatadi. Shu sababli ta'lim jarayoniga innovatsion metodlarni keng joriy etish, xalqaro tajribalarni o'rganish hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish kelajakda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] Johnson, L., Adams Becker, S., Estrada, V., Freeman, A. The NMC Horizon Report:(2016) Higher Education Edition. Austin: The New Media Consortium, 2016.

[2] Prensky, M. Digital Natives, Digital Immigrants. On the Horizon, (2001), Vol. 9, No. 5, pp. 1–6.

[3] Bell, S. Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. The Clearing House, 2010, Vol. 83, No. 2, pp. 39–43.

[4] Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., Forcier, L.B. Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. London: Pearson,(2016).

